



Marjona TO'RAQULOVA,

Buxoro muhandislik - texnologiya instituti dotsenti, PhD

E-mail: marjonorakulova79@gmail.com.

Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d H.Jo'ravet taqrizi asosida

THE CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF THE MASTERS' ABILITY TO INVENT IN THE MODERN INDUSTRY - 4.0 ENVIRONMENT AND THE EXISTING PROBLEMS

Annotation

The article presents the current state of development of the Masters' ability to invent in technological and industrial innovation in the modern Industry - 4.0 environment and the description of existing problems, presents the importance of the problem study jaroyin, the tasks set for its solution. A number of educational content and advantages that will be effective in developing methodological foundations that develop the ability to invent subjects in teaching in higher educational institutions and applying them to the educational process were scientifically analyzed and recommendations were developed, the possibilities of ensuring the development of the ability to invent in the teaching of specialty subjects in Masters were described.

Key words: Technological and industrial innovation, invention, ability, creativity, problem, flexibility, education, method, master, creative thought, scientific.

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ МАГИСТРОВ К ИЗОБРЕТАТЕЛЬСТВУ В СОВРЕМЕННОЙ СРЕДЕ ИНДУСТРИИ 4.0 И СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

В статье представлено текущее состояние развития способности магистров к изобретательству в области технологических и промышленных инноваций в современной среде "Индустрия - 4.0" и описание существующих проблем, представлена важность исследования проблемы яроин, задачи, поставленные для ее решения. Был научно проанализирован ряд образовательных материалов и преимуществ, которые будут эффективны при разработке методических основ, развивающих способность к изобретательству предметов при преподавании в высших учебных заведениях и применении их в образовательном процессе, и разработаны рекомендации, возможности обеспечения развития способности к изобретательству при преподавании специальных предметов. в книге "Мастера" были описаны.

Ключевые слова: Технологические и промышленные инновации, изобретение, способность, креативность, проблема, гибкость, образование, метод, магистр, творческая мысль, научный подход.

MAGISTRALARNING ZAMONAVIY SANOAT - 4.0 MUHITIDA IXTIRO QILISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Annotatsiya

Maqolada magistrlearning zamonaviy sanoat - 4.0 muhitida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlanirishning amaldagi holati va mavjud muammolar bayoni keltirilgan bo'lib, muammolarni o'rganish jaroyinining ahamiyati, uning yechimi borasidagi qo'yiladigan vazifalar keltirilgan. Oliy ta'lif muassasalarida fanlarni o'qitishda ixtiro qilish qobiliyatini rivojlaniruvchi metodik asoslarni ishlab chiqish va ta'lif jarayoniga qo'llashda samara beradigan bir qator ta'lif mazmuni va afzalliklari ilmiy jihatdan tahlil qilindi hamda tavsiyalar ishlab chiqildi, magistrlarda ixtisoslik fanlarini o'qitishda ixtiro qilish qobiliyatini rivojlanirishni ta'minlashning imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zları: Texnologik va sanoat innovatsiyalar, ixtiro, qobiliyat, ijodkorlik, muammo, moslashuvchanlik, ta'lif, metod, magistr, kreativ fikr, ilmiy.

Kirish. Zamonaviy pedagog mutaxassis, talabalarning shaxsiy va ijodiy salohiyatini shakllaniruvchi hamda rivojlaniruvchi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmonida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 70-maqсададига yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda ko'rsatib o'tilganidek, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlanirish, ta'lif tizimini rivojlanirishning ustuvor maqsadlari orasida har bir talabaning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlanirish, unda mehnatsevarlik va yuqori axloqiy tamoyillarni tarbiyalash uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish vazifasi qo'yildi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ijodiy va kreativ fikrlashga avvalgiga qaraganda ko'proq e'tibor qaratilmoqda. O'zgarishlar tezligi, moslashuvchanlikka bo'lgan ehtiyoj va raqobatning kuchayishi ixtiro qilish qobiliyatini rivojlanirishga beparvo bo'lmaydigan sifatga

aylantiradi. Ta'lifning zamonaviy tushunchalari (muammoli ta'lif nazariyasi, rivojlanish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lif konsepsiysi, vakolati yondashuv va boshqalar) talabalarning ijodiy faoliyati bilan reproduktiv ta'lif va kognitiv faoliyatining kombinatsiyasiga asoslanadi. Jumladan, texnik oliv ta'lif muassasalarida bo'lajak muhandis-yaratuvchilarining muammoni o'rta ga tashlash, uni har tomonlama o'rganish, muammoning kelib chiqish sabab va oqibatlarini muzokara qilish, mavjud muammo ustida mustaqil mulohaza yuritish, muammoni yechishning turli xil o'zgacha usul va imkoniyatlari tahlil qilish hamda yechimning eng maqbul yo'lini topishga qodir bo'lishlari uchun ularda ixtiro qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlanirish hozirgi vaqtida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qator yillar ilgari o'tkazilgan ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inson o'sib ulg'aygan sayin ularning ixtiro qilish qobiliyatlari susayadi. Sidney universiteti olimasi Robin Gibson hisobotiga ko'ra: 5 yoshga kelib bolaning ijodkorlik

salohiyati 98% ni tashkil qiladi; 10 yoshga kelib, bu foiz 30% ga tushadi; 15 yoshda bu 12%; biz kattalar davrida bizning ijodimiz 2% dan oshmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Magistrlar ixtirochilik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishning auditoriya hamda darsdan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etish kabi turlari farqlanadi.

Auditoriyada ixtirochilikni amalga oshirish yo'llari quyidagilar: topshiriqlarni bitta format bilan cheklamasdan, ya'ni talabalarga yozma topshiriq o'rniiga ular podkast, video, loyiha tuzishi, mакет yasashi va boshqalarni yaratishiga imkon yaratish; ijodkorlik uchun talabaga yetarlicha vaqt berish. Masalan, talabalar o'z g'oyalarni o'rganishlari uchun ularga vaqt berish; talabalarda topshiriqlar haqidagi fikrini kengaytirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga shart-sharoit yaratib berish. Masalan, texnik qurilma ishlashini o'rgatish va auditoriyani yanada interaktiv qilish uchun internet tarmog'idan foydalanish mumkin; noan'anaviy o'quv materiallarini auditoriyaga kiritish. Auditoriyadagi sohaga oid adabiyotlardan tashqari ta'limga bilan qiziqarli texnik yo'nalihsida o'yin yaratadigan Radiolab va TED Talks kabi o'quv podkastlari va videofilmlardan foydalanish mumkin; magistrlarning ijodiy g'oyalari, fikrlari va mahsulotlarni auditoriyaning o'zidayoq mukofotlash; magistrlarning ixtiro qilish qobiliyatlarini ko'proq shakllantirish auditoriyaning o'zida muhandislik ustaxonalarni (laboratoriylar) yaratish.

Nafaqat ta'limga balki, sanoat uchun ixtirochilikning (texnik ijodkorlik) tutgan o'rnini beqiyos bo'lib, jumladan, ingliz olimi (pedagog), ijodkorlik bo'yicha yekspert hamda ijodiy fikrleshni rivojlantirish bo'yicha ma'ruzachi va maslahatchi Ken Robinson ta'limga sohasida ijodkorlik zarurligiga bag'ishlangan ma'ruza (TED Talks)lari butun dunyo talabalari uchun foydali qo'llanmadir.

TED suhbatlarining magistrlarda ixtirochilikni shakllantirishdagi afzalliliklari quyidagilardan iborat:

1. TED suhbat magistrlarda maqsadni topishga yordam beradi.
2. Magistr shaxsining "o'zi"ni tan olishga yordam beradi.
3. Magistrlarning intilishlari va qiziqishlarini bilib olishga yordam beradi va ularni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.
4. TED muzokaralari magistrlarning fazilatlarini yaxshilashga qaratilgan bo'ladi.
5. TED suhbatlarida to'plangan bilim magistrlarda bir xil maromda fikrleshdan tashqarida, ya'ni kreativlikka yordam beradi.
6. Shuningdek, magistrlarda bajaroytgan ishidan zavqlanishga hamda ijodiy yondashishiga yordam beradi [5].

Zamonaviy sanoat - 4 takliflariga asosan ta'limga sohasida keng qamrovli islohotlarning amaldagi holati bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mavjud magistratura



1-rasm. Pol Torransning kreativlikni shakllantirish ko'nikmasi

mutaxassislik yo'nalihsida magistrlar avval mavjud bo'lgan texnologiyani tahlil qilib muhandis-texnolog bo'lib yetishib chiqsa, biz taklif etayotgan metodika asosida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlangan raqamlı transformatsiyalash-muhandislari yaratuvchi malakasiga ega bo'lib shakllanadi. Quyida magistrlarning texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlanishda o'qituvchining harakat yo'nalihi keltirilgan (1-rasm).

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatlil amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga yega shaxsdir. Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandard usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatlari va tayyor shaxs.

Magistrlar o'zlarining kreativ fikrlesh qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar magistrlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash yoki qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni note'o'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar, bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlesh ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlanishish mumkin bo'lmaydi. Quyidagi omillar magistrlarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlanishga to'sqinlik qiladi: o'zini tavakkaldan olib qochish; fikrlesh va xatti-harakatlarda qo'pollikha yo'l qo'yish;

shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi; boshqalarga tobe bo'lish; har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Bo'lajak muhandislarda ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantirishda tajriba va doimiy mashq usuli yordam bersada, o'qituvchi magistrlarga murabbiy sifatida turli strategiyalardan foydalanishni o'rgatishi kerak. Magistrlarga turli g'oyalilar turli toifa (kategoriyalar)ga bo'linishini anglashida yordam berish mumkin. Masalan, "neft mahsulotlari" kategoriyasiga magistrlar neft mahsulotlari nomlarini keltiradilar. Birozdan so'ng "gaz mahsulotlari" kategoriyasiga magistrlar avval polietilen, keyin boshqa mahsulot nomlari ro'yxatini tuzadilar. Mashq shu yo'sinda davom yetadi. Bu magistrlar bir kategoriya, ya'ni bir fikrda ikkinchisiga o'tish va unga tezda moslashish ko'nikmasini o'zlashtirmaguncha davom yetadi. Magistrlarda bunday ko'nikma shakllangach, ulardan moslashuvchanlik bilan fikrleshni talab qilish mumkin. "Agarda dunyoda neft va gaz mahsuloti bo'lmaganida, yonilg'i mahsulotlarini qaysi xomashyodan olish mumkin bo'lar yedi?" va "Kelajakda neft va gaz xomashyosi zaxirasi tugab qolish muammosining, qanday strategiyani qo'llaganda, samarali yechimini topish mumkin?".

Turli kategoriyalarga mansub savollar talabalarda moslashuvchanlik ko'nikmasini rivojlaniradi.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to’rtta kreativlik ko’nikmasini aniqlagan (1987). Unda kreativ ko’nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

Ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan darslarda magistrlardan ajoyib g’oyalarni o’ylab topish (o’ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish) yoki boshqa g’oyalarni solishtirish va ulardagi bog’liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko’nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Magistrarning birligina kategoriyada “qotib” qolishi oldini olish uchun majburiy solishtirish strategiyasini qo’llash mumkin. Masalan: o’qituvchi “neft gaz sohasini chiqindisiz texnologiyalar asosida yangidan barpo etish”, “neftni burg’i lash usullari”, ya’ni neft va gaz sohasida samarali toza mahsulotlarni ishlab chiqarish mumkinligiga qanday erishishi mumkinligi haqida so’rashi mumkin.

Tahlil va natijalar. Mazkur strategiya moslashuvchanlik bilan fikrlash orqali voqealar va tushunchalar o’rtasida

SCAMPER strategiyasini qo’llash asosida magistrlarda ixtirochilikni rivojlantirish asoslari

Texnik ijodiy fikrlash orqali ixtirochilikni rivojlantirishda SCAMPER mnemonik sxemasidan moslashuvchan fikrlash ko’nikmasini shakllantirishda foydalanish

SCAMPER	Savollar	Vazifalar
Substitute (almashtrimoq / o’zgartirmoq)	Gazni nordon komponentlardan tozalashda absorbent turini o’zgartirish uchun sabablar sanab o’ting	Variantlar ro’yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni takomillashtirish yo’llarini izlash
Combine (birlashtirmoq)	Suv-neft emulsiyasiga deemulgator qo’shilisa, qanday jarayon yuz beradi?	Variantlar ro’yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, jarayonga yangi samarali g’oyani birlashtiring
Adapt (moslashtirmoq)	Gaz tarkibidan suyuqlik tomchilarini ajratish uchun qanday separatordan foydalanish samarali hisoblanadi?	Variantlar ro’yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni ta’riflang
Modify (o’zgartirmoq / boshqa shakl bermoq)	Rektifikatsion kolonnada maksimal va minimal haroratlar qancha?	Variantlar ro’yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni ta’riflang
Put to other uses (boshqa soha / usulda qo’llash)	Neft mahsuloti benzinni yana qaysi sohalarda qo’llash mumkin?	Variantlar ro’yxatini tuzing
Yelminate (oldini olmoq / bartaraf qilmoq)	Quvur va jihozlar korroziyalanishining oldini olish uchun nimalar qilinadi?	Variantlar ro’yxatini tuzing
Rearrange / Reverse (qo’llanilishini o’zgartirish)	Gazga hid berishda odorantni qo’shish usulini o’zgartirish natijasi nimalarda namoyon bo’ladi?	Variantlar ro’yxatini tuzing

Yuqorida aytib o’tilganidek, SCAMPER – bu aqliy hujum paytida berilishi kerak bo’lgan savollar to’plami (yangi g’oyalarni qidirish). Muammo turli xil bo’lishi mumkin – ishlab chiqarishga oid samaradorligi yuqori texnologiyani yaratish, yangi turdagи muhandislik loyihalarni izlash va boshqalar. Asosiysi, uni iloji boricha aniq shakllantirish. Muammoning ob’ekti va mavzusini ta’kidlashta harakat qilish zarur (3-rasm). Texnik ijodiy fikrlash orqali ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishga yondashilgan dars mobaynida muammo yuzaga kelishi bilanoq aqliy hujumni boshlash va bo’limlardan savollar berish lozim. Har bir savolga yechim bo’lishi shart emas, lekin ularning ba’zilari talabani yangi g’oyalarni ishlab chiqarishiga majbur qiladi. Xuddi shunday, barcha savollar fanga aynan mos kelishi shart emas – ba’zilari kontekstda takrorlanadigan, noo’rin yoki hatto berna’ni tuyulishi mumkin. Faqat ularni o’tkazib yuborib yoki ba’zilarni dars davomida qayta tuzishga harakat qilish lozim. Muammoni hal qilish uchun nimani almashtirish mumkin? Jarayon holatini, jihoz turini, xomashyo sifatini, texnologiyani, katalizatorni, fizik kattaliklarni, ishlash prinsipi va boshqalar. Masalan, quyidagi savollar ko’rinishida: Savollar: Nimani almashtirish mumkin? Nima maqsadda? Qayerdan? Qayerda? Qachon? Qanday? Qaysi qismini almashtirish mumkin? Ushbu taklif etilayotgan metodikaga asoslangan texnik ijodiy fikrlash orqali ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirishda raqamlı transformatsiyalash tadqiqotchi muhandislar Sanoat 4.0 muhitida “tannarx muhandisligi”,

“qiyoslash muhandisligi”, “qayta muhandislik” “loyihalalovchi” kabi kadrlar bo’lib yetishib chiqadi.

Xulosa va takliflar. Magistrarning zamonaviy sanoat - 4.0 muhitida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishda texnik ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurati hamda moslashuvchanlik ko’nikmalarini ketma-ket qo’llash samaradorligi aniqlandi. Magistrarning zamonaviy Sanoat - 4.0 muhitida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishning amaldagi holati va mavjud muammolariga muqobil yechimi ixtisoslikka oid fanlardan bilmilarga ega bo’lish, kommunikativ odob-axloq asoslarini bilish, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatları, motivatsiya, shaxsiy fazilatlar tizimi. Texnik ijodkorlik yo’llar xaritasidan borgan holda SCAMPER strategiyasini qo’llash asosida magistrlarda ixtirochilikni rivojlantirish asoslarini belgilandi va amaliyotga joriy etishga tavsiyalar berildi. Olib borilgan izlanishlar shuni ko’rsatadiki, magistrlarda ixtirochilik qibiliyatini rivojlantirish uchun avvalo texnik ijodiy fikrlash, moslashuvchanlik bilan fikrlash orqali voqealar va tushunchalar o’rtasida bog’liqliklarni topishga yordam berishi mumkinligi asoslandi. Yuqoridagi keltirilgan metodlar orqali zamonaviy sanoat - 4.0 muhitida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishning amaldagi holati va mavjud muammolariga o’z yechimiga ega bo’ladi.

ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami. – Toshkent, 2017. – B.39
2. Turakulova, M., Tilboev, L., Murodov, M., Ataullaev, S., Saviev, M. (2024). Extraction of hydrocarbons from “yellow oil” with liquefied gas residue. In E3S Web of Conferences (Vol. 486, p. 04023). EDP.ciences.
3. To’raqulova M.Q. 2019. Iqtidorli talabalar bilan ishslashda ta’lim turlari va vositalarini tanlash. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro, №5.

bog’liqliklarni topishga yordam beradi. Eberlening ishlab chiqqan SCAMPER mnemonik sxemasi substitute (almashtrimoq/o’zgartirmoq), combine (birlashtirmoq), adapt (moslashtirmoq), modify (o’zgartirmoq/boshqa shakl bermoq), put to other uses (boshqa soha/usulda qo’llash), yelminate (oldini olmoq) va rearrange (qo’llanilishini o’zgartirish) kabi strategiyasini qo’llash asosida magistrlarda texnik ijodiy fikrlash orqali ixtirochilik ko’nikmasini rivojlantirishga erishdi.

Boshqa har qanday vosita singari, agar quyidagi shartlar bajarilsa, bu strategiya samarali ishlaydi: magistr muammoni tushunadi va uni yozib olishi mumkin (yozib olish uchun aqli mezonlardan foydalanishga harakat qiladi); magistr o’zining “standartlaridan” va bir xillikdan tashqariga chiqadi; fikrlarni qidirish bosqichida javoblarni tanqid qilmaslik kerak. 1-jadval

4. To'raqulova M.Q. 2021. Oliy ta'lif muassasalarida iqtidorli talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirish mexanizmi va modeli, O'zMU xabarlari. – № 1/6. Toshkent.
5. To'raqulova M.Q. 2022. Talabalar texnik ijodkorligini shakllantirishda shaxs kreativligi va kognitivligi. O'zMU xabarlari. – № 1/2. – T.
6. Turakulova M.K. Oliy ta'lif tizimidagi ustuvor vazifalar. International Scientific-Practical Distance Conference “The 21st Century Skills for Professional Activity”VII Scientific-methodical journal of “scientific progress”.
7. Turakulova M.K. (2021) Development of technical creative thinking skills of gifted students. World Bulletin of Social Sciences (WBSS). 2022. Vol. 14.
8. Turakulova M.K. (2022) Scientific And Creative Training Of Teachers In The Formation Of Technical Creativity Of Talented Students. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences. Malaysia.
9. Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. (2020). Identification and development of the abilities and creativity of gifted students in higher educational institutions. Asian journal of multidimensional research. Special issue.
10. Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. (2020). Search, selection and planning of targeted training of talented students in technical universities. International engineering journal for research & development. Vol 5, Issue
11. To'raqulova M.Q. To'xtayeva Z.Sh. (2021). Ta'lif jarayonida faol metodlarni qo'llash orqali ta'lif samaradorligini oshirish.“Yengil sanoatda fan-ta'lif va ishlab chiqarishning innovatsion yechimlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 1-tom. Buxoro.